

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, Beruniy nomidagi Davlat mukofoti sohibi, akademik Azizzon Qayumov xotiralaridan.

Dor ostidan qaytish...

Men 1926 yilning 19 yanvarida Qo‘qon shahrida bor boyligi kitobu qo‘lyozmalardan iborat bo‘lgan ziyoli oilada dunyoga keldim. Otamning bobosi Abdurahim Mirzo Qo‘qon xoni saroyida mirzaboshi bo‘lgan. XIX asrning ikkinchi yarmida xonlar tez-tez almashib turgan. Yangi taxtga o‘tirgan xonlardan biri Abdurahim Mirzoni ham avvalgi hukmdorning odami deb o‘limga hukm qilgan. Katta bobomizni dorga olib ketishayotganda, shahar ahli norozilik bildirib, xondan hukmni bekor qilishni talab etgan. Xon chopar yuborib, katta bobomni dor ostidan qaytargan... U kishi haqida Qo‘qon xonligi tarixiga oid “Ansob us-salotin” kitobida ham ma’lumot bor. Abdurahim Mirzoning o‘g‘illari, ya’ni menin bobom Abduqayum Mirzo xattotlik bilan shug‘ullangan. Toshkentda toshbosma usulida kitob chop etish endigina yo‘lga qo‘yilgan davrlar. Bobomiz Hofiz, Navoiy, Fuzuliy, Bedil devonlarini husnixat bilan ko‘chirib bergen va ana shu qo‘lyozmalar litografiya usulida ko‘paytirilgan. Bobomiz ko‘chirgan kitob nusxalari hozir ham Sharqshunoslik institutida saqlanadi.

Akademiklarni tarbiyalagan muallim

Dadam — O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan o‘qituvchi Po‘latjon domla Qayumov bir umr muallimlik qilib o‘tganlar. Shoir Hamza bilan yaqin qadrdon bo‘lgan dadam Qo‘qonda usuli jadid — yangi usuldagagi maktab ochganlar. Bu maktabdan keyinchalik O‘zbekiston Fanlar akademiyasi prezidentlari, ikki zabardast olim — Ubay Orifov va Tesha Zohidov yetishib chiqdi.

Dadam uch kitobdan iborat “Tazkirayi Qayumiyy”, “Qo‘qon tarixi va uning adabiyoti” asarlarini yozganlar. Forsiyzabon ijodkorlar haqida o‘zbek tilida ikki jildlik “Tazkiratush-shuaro” qomusini tuzganlar, uchta yirik tazkirani forschadan o‘zbek tiliga o‘girganlar.

Onam Adolatxon Qayumova ham xat-savodli, adabiyotdan yaxshi xabardor ziyoli ayol edilar.

Bolalikdan uyimizda she’rxonlik majlislari ko‘p bo‘lardi. Dadam Navoiy, Fuzuliy, Mashrab g‘azallarini xuddi Qur’on tilovat qilgandek chiroyli ohang bilan o‘qirdilar. G‘azal ohanglari hali ham qulog‘im ostida jaranglaydi. Darvoqe, marhum ukam — filologiya fanlari doktori, professor Laziz Qayumov ham dadamizning ta’lim-tarbiyalarini olib ilmda yuqori pog‘onalarga ko‘tarildi.

### Charxiyning suyukli shogirdi

Ko‘nglimda ijod va adabiyotga muhabbat juda erta uyg‘ondi. Maktabda o‘qib yurgan paytimdanoq uncha-muncha she’rlar mashq qilib turardim. Maktabda qo‘limga qalam tutqazib, xat-savodimni chiqargan inson — Qo‘qonda dong‘i ketgan til va adabiyot muallimi Hamzaxon Abbasov edi (O‘zbekning mashhur rejissyori bo‘lib yetishgan Shuhrat Abbasov shu kishining jiyani bo‘ladi).

Yodimda, mакtab davrida Qayum Po‘lat ismli adabiyot muallimi Alisher Navoiy haqida ikki soat dars o‘tdi. Ana shu ikki soatgina saboq butun umrga tatidi deyish mumkin. O‘zim uchun Navoiyning yangi qirralarini kashf etdim. Ko‘nglimga Navoiy ijodini chuqur o‘rganishni tugdim.

Kunlarning birida aruz vaznida yozgan she’rimni yurak yutib Charxiy domлага olib bordim. Charxiy Qo‘qon adabiy muhitining yetakchisi, juda obro‘li shoir edi. She’rim u kishiga ma’qul tushdi. Ertaga keling, u yoq-bu yog‘iga qalam urib tahrir qilib qo‘yaman, dedilar. Domla ko‘rib bergen she’rim Qo‘qon shahri va Farg‘ona viloyati gazetasida chop etildi.

Charxiy domla bilan u kishining vafotiga qadar ustoz-shogird bo‘lib qoldik. Mumtoz adabiyotimiz qomusi bo‘lgan bu insondan ko‘p saboqlar oldim.

“G‘azal muallifini topib kelinglar!”

Yoshligim ocharchilik, qahatchilik davriga to‘g‘ri keldi. Har ko‘cha, har xonadonda mudhish urush ko‘lankasini ko‘rish mumkin edi. Ana shunday og‘ir paytda o‘ninchini “a’lo”ga bitirdim. U mahallar “a’lo” attestat bilan sobiq Ittifoqdagi barcha oliy o‘quv yurtlariga imtihonsiz kirish mumkin edi. Ammo qo‘limda hujjat boru, Qo‘qonda universitet yo‘q! Toshkentga boray desam, zamon og‘ir. Shundan keyin Qo‘qon neft texnikumiga o‘qishga kirdim.

Texnikumda o‘qib yurgan paytimda hayotimni o‘zgartirib yuborgan hodisa ro‘y berdi. O‘sha paytda O‘zbekiston rahbari bo‘lgan Usmon Yusupov Charxiy domla bilan juda qadrdon edi, Qo‘qonga yo‘li tushsa, albatta yo‘qlab o‘tardi. Bundan uchrashuvlar esa qo‘sishq va she’rxonliksiz o‘tmasdi. Ana shunday tashriflardan birida Fazliddin qori degan hofiz mening g‘azalim bilan qo‘sishq kuylaydi. Qo‘sishq Usmon Yusupovga ma’qul tushadi va g‘azal muallifi bilan gaplashmoqchi ekanini aytadi. Usmon Yusupov men bilan suhbatlashgach, Toshkentga borib o‘qishni maslahat berdi.

“Qibraydan universitetgacha piyoda qatnardim”

Usmon Yusupovning chorlovi bilan Toshkentga keldim. U kishi meni o‘z farzandidek oilasiga qabul qildi. Men Qibrayda Usmon Yusupovning yozlik bog‘ida yashay boshladim, O‘rtta Osiyo davlat universitetini sharq fakultetiga o‘qishga kirdim.

Fakultetimiz hozirgi Toshkent yuridik instituti binosida joylashgandi, joy yetishmasligidan ikkinchi smenada o‘qirdik. Dastlab o‘qishga piyoda qatnashga to‘g‘ri keldi. Qibraydan yayov yo‘lga tushib, ikki yarim soat deganda, Salordagi tramvay bekatiga — hozirgi Pushkin maydoniga kelardim. U yerdan tramvayga o‘tirib, fakultetga amallab yetib olardim. Yo‘l ko‘p vaqt olardi. Shu sabab, ikki juft darsdan keyin uchinchisiga kirmasdan yana orqaga qaytardim...

Keyinroq Usmon Yusupovning Toshkent markazidagi uyiga (u yerda hozir Indoneziya elchixonasi joylashgan) ko‘chib o‘tdim. Besh yillik talaba hayotim shu yerda kechdi.

O‘sha mahallar men yozgan bir nechta muxammas va g‘azalni xalq hofizlari — Jo‘raxon Sultonov va Ma’murjon Uzoqov qo‘sishq qilib aytadi. Bu endigina adabiyot ostonasida turgan talaba uchun katta yutuq edi.

Xarobadan topilgan xazina

Universitetni 1949 yili “qizil” diplom bilan tugatdim. “Ismat Buxoriyning ijodiy merosi” mavzusida bitiruv ishi yozdim. Meni O‘zbekiston Fanlar

akademiyasi Sharqshunoslik institutiga ishga yuborishdi. Shu yerda yana bir ustozim, akademik Vohid Zohidov bilan tanishdim...

Shoir Maxmur hayoti va ijodi bo'yicha juda kam ma'lumotga ega edik, fanga uning "Xapalak" she'rigina ma'lum edi. Maxmur ijodiga qiziqib yurgan paytlarim Qo'qonda yangi devon topilgani daragini eshitib, zudlik bilan yetib bordim. Bir kishi xaroba uydan qo'lyozma topib olibdi. U kimga qarashli ekaniyu, nimalar yozilganini bilmaydi, arabiylari o'qiyolmaydi ham. Yaxshiki, o'z vaqida bundan xabardor bo'ldik. Aks holda, nodir devon yo'q bo'lib ketishi ham mumkin edida. Bu adabiyot ahli uchun yangilik bo'ldi. 1954 yili Maxmur ijodi bo'yicha nomzodlik ishi himoya qildim.

Bu orada Nodira, Uvaysiy to'plamlarini chop ettirdim, G'oziy, Hoziq kabi qo'qonlik shoirlar hayoti va ijodini tadqiq qildim.

Bir necha yillik izlanishlardan keyin 1961 yili "Qo'qon adabiy muhiti" mavzusida doktorlik dissertatsiyasi yoqladim. Dissertatsiyaga hakamlik uchun Ozarbayjondan taniqli olim Hamid Oraslini taklif etdik. U kishi dissertatsiyani ijobiy baholadi.

Doktorlik ishim tanqidga uchragani ham bor gap. Ayrim siyosiy hushyor kishilar "saroy shoirlari" haqidagi yozganim uchun meni ayblab chiqishdi. U mahallar mumtoz adabiyot vakillarining aksariyatiga "saroy shoiri" tamg'asi qo'yilgan va ular haqida ijobiy fikr aytish imkonsiz edi. Ana shu mafkura ta'sirida Bobur, Amiri, Ubaydiy, Feruz kabi shoirlar e'tibordan chetda qolgandi...

### Qadimiyat obidalari

1960-yillarda oliy o'quv yurtlari uchun qadimgi davrdan to hozirgacha adabiyot tarixi darsliklarini yaratdik. Bu orada adabiyotimizning eng qadimgi davrlariga qiziqib qoldim. Jahonga mashhur O'rxun-Enasoy bitiklari, "Devoni lug'otit-turk" asarini o'rganib chiqdim. Shu asosda 1972 yili "Qadimiyat obidalari" kitobim nashrdan chiqdi. O'sha yillari Beruniy, Ibn Sino kabi allomalar asarini o'rganishga kirishdik. Ibn Sinoning Yevropada o'rta asrlarda darslik sifatida o'qitilgan "Tib qonunlari" ko'pjildligi tarjimasida qatnashdim.

Alisher Navoiy asarlari xususida kitob yozish bolalik orzum edi. Ammo jiddiy hozirliksiz bu mavzuda qalam tebratish amri mahol ekanini yaxshi bilardim. Uzoq tayyorgarlikdan keyin — 1975 yili “Xamsa”ning beshinchi dostoni “Saddi Iskandariy” xususida monografiya yozdim. Ilk muvaffaqiyat meni ruhlantirib yubordi. Shundan keyin asosiy diqqat-e’tiborni Navoiy ijodini o’rganishga qaratdim. O’tgan yillar mobaynida “Xamsa” besh dostoniga bag‘ishlashgan beshta monografiyam chop etildi. Keyinroq Navoiyning kam o’rganilgan asarlari ustida ishladim. Ana shu izlanishlar asosida “Nodir sahifalar” kitobim dunyo yuzini ko‘rdi. Alisher Navoiy ijodini, asarlarini o’rganib ko‘pdan qidirganimni topgandek bo‘ldim.

### Sabr va shukr — hayotiy qoidam

1970-yillarda madaniyat institutida dars berayotgan paytimda talabalardan biri “Ciz Alisher Navoiy haqida shunday to‘lqinlanib gapiryapsizki, bu bilan uni ideallashtirishga urinayotgandeksiz”, deb e’tiroz bildirib qoldi. Men javobni qisqa qilib, talabaga mashhur sharqshunos olim Bertels fikrini eslatdim: “Navoiy shunday dahoki, uni ideallashtirmaslikning imkon yo‘q!”

Chindan ham, hayotda nimaiki muammo bo‘lsa, unga Navoiy hikmatlaridan javob topish mumkin. Ulug‘ shoir “Hayrat ul-abror”ning ikkinchi maqolotida imonning asosi sabr va shukrdan iborat ekanini yozadi. Hayotda nima ro‘y bersa, sabr dan chekinma, yaxshilikdan xursand bo‘lib ketma, musibatdan ezilib o‘zingi yo‘qotma, deya nasihat qiladi shoir. O‘zim ham har qanday og‘ir holat, turli tashvish yoxud musibatlarga ro‘baro‘ bo‘lganda sabr va shukrga suyanaman.

Yana bir hayotiy qoidam — dushmanlik, hasad, adovatdan yiroq bo‘lish. Bu borada Navoiyning:

«Olam            ahli            bilingizkim,            ish            emas            dushmanlig‘  
Yor o‘ling bir-biringizga, ki erur yorlig‘ ish» hikmatini doim takrorlab yuraman.

Yoshlar Alisher Navoiy ijodini puxta o‘rganmayotganlaridan mening ham xavotirim cheksiz. Ammo bu borada yoshlarimizga da’vo qilmayman. Ayb — adabiyotshunoslarda deb bilaman. Navoiy asarlariga sharhlar, lug‘atlar yaratish

kerak. Ana shunda yoshlar Navoiyning tafakkur ziyyosidan oz bo‘lsada, bahra oladilar. O‘zim Navoiyning “Ilk devon”iga sharh yoza boshladim, ammo bu juda ham katta ish. Demak, yangi avlod adabiyotshunoslari zimmasida muhim yumushlar turibdi.

Buning uchun maktablarda adabiyotga mehr qo‘ygan yoshlarni tarbiyalashga e’tibor berish, filologiya fakultetida kadrlar tayyorlashni yanada kuchaytirish kerak.

### Ushalmas va ushalgan orzular

Shukrki, ma’rifatli ota-onha qo‘lida tarbiya ko‘rdik. O‘z vaqtida ularning hurmatlarini joyiga qo‘ydik. Ammo yosh bir joyga borib o‘ylab ko‘rsam, baribir ota-onaga ko‘rsatiladigan hurmatning mingdan birini ham qilmagan ekanmiz. Eng baxtiyor insonlar — ota-onasi barhayot insonlar. Yoshlarga ota-onani g‘animat bilib, ularga xizmat qilib qolish va duolarini olish kerakligini eslatib o‘tmoqchiman. Qani endi ota-onam tirik bo‘lsalaru, ularga yana yaxshiliklar qilsam, deyman...

Yana bir orzum, asarlarimni jamlab chiqarish edi. 2008 yildan beri Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyida “Asarlar”im chiqqa boshladidi. Hozircha besh jildi chop qilindi, mo‘ljal bo‘yicha “Asarlar” o‘n besh jildga yetadi. O‘quvchilar Navoiy, Bobur, Huvaydo, Furqat, Ogahiy kabi shoirlar, Xorazmiy, Farg‘oniy, Beruniy, Ibn Sino, Ulug‘bek singari olimlar haqidagi kitoblarim, mumtoz adabiyotga oid maqola va tarjima asarlarimning to‘ldirilgan, qayta ishlangan varianti bilan tanishadilar.

Talabalikdan qolgan odatim — har kuni erta tongda besh sahifa yozaman. Hatto chet el safarlariga chiqqanimda ham ana shu odatni kanda qilmaganman. Negaki, yozish men uchun — ko‘ngil amri, qalb ehtiyoji...